

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

	4	Ta'lim sifatini oshirish – yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'llidir
--	---	---



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

A. Nasirov	6	Umumiy o'rta ta'limi takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslari (dasturiy konsepsiya)
X. Ibraimov, F. Ibragimova	12	Gender o'z-o'zini anglash – gender tenglikni ta'minlashning ustuvor prinsipi sifatida
O. G'aniyev	15	Bo'lajak o'qituvchilar metametodik kompetensiyasini rivojlan-tirishning didaktik ta'minoti
M. Umnova	19	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatida bilishga qiziqishlarining rivojlanish tendensiyalari
Sh. Jo'rayev	24	Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasi falsafiy va pedagogik-psixologik muammo sifatida
J. Shukurllayev	28	Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni
D. To'rayeva	31	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy kompetentli-ligini rivojlantirish (Integrativ yondashuv asosida)
G. Ibragimova	35	O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim sifatini rivojlanishiga oid tarixiy ma'lumotlar
A. Suyunov	38	Integrativ yondashuv asosida tarix o'quvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlanishining definitsiyasining psixologik-pedagogik aspektlari



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

N. Yuldasheva	42	Pedagogik jarayonda "o'zbek tilining sohada qo'llanilishi"ni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari
R. Eshimov, S. Israilov	46	Ummumta'lim maktablariga doir kompyuter imitatcion modellar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish metodikasi (7-sinf "fizika" o'quv predmeti misolida)
Q. Muxammadiyev	51	Texnologiya fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish
R. Ziyayev, M. Umarova	54	Organik kimyoda spirtlar mavzusi o'tilganda oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini o'rganish
L. Mambetova	58	Ona tili darslarida o'quvchilar nutqiy kompetensiyalarini rivo-jlantirishning nazariy asoslanishi
O. Yusupov	61	Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib geometriya fanini o'qitish metodikasi



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

G. Buvorayeva	65	Ummumta'lim maktablarida o'quvchilarning tarbiyaviy kompe-tensiylarini uyg'unlashtirish texnologiyasi (Jismoniy tarbiya fani misolida)
B. Amirullayeva	68	Tabiiy fan o'qituvchilarining o'quv metodik tayyorgarligini rivo-jlantirishda konstruktiv yondashuv

M. Tairova	75	Bo'lajak tarbiyachilarni mutaxassislikka tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish
N. Kadirova	79	O'quvchining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda yangicha yondashuv tajribasi
Z. Komilova	84	Innovatsion ta'lif-tarbiya jarayonida 10-11-sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini rivojlantirish
I. Jumaniyazova	89	Milliy mumtoz adabiyot namunalarining o'qitilishiga doir tadqiqotlar tahlili

TA'LIMDA MENEJMENT

M. Xalilova	93	Maktabgacha ta'lif tizimida inson kapitalini rivojlantirishda ikkinchi tilni o'rganishning psixofiziologik ahamiyati
KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH		
K. Masharipov	97	Uzluksiz ta'lif tizimida kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirishning dolzarbligi
HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA		
D. Sharipova, I. Ibrohimov	100	Yo'l harakati xavfsizligida piyodalarning o'rni – pedagogik aspekt (Koriya tajribasi asosida)

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

V. Karayev	106	Sport hakamlarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondoshuv
Sh. Mirzakulov	110	5-7 sınıf o'quvchilarida chidamlilikni rivojlantirish texnologiyasi
A. Sabirov	114	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatini shakllantirishing uslubiy ahamiyati
Sh. Ro'ziyev	118	Voleybol murabbiyining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi

MAKTABGACHA TA'LIM

A. Shadiyev	122	Maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanish dinamikasiga xos xususiyatlari
-------------	-----	---

QIYOSIY PEDAGOGIKA

D. Kamoljonova	126	Xorijiy tajribalar asosida boshlang'ich sınıf o'quvchilarida kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish (AQSh va Yevropa misolida)
A. Xolmurodov	130	Pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or xorijiy tajribalari

KORREKSION PEDAGOGIKA

R. Safarov	135	Ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasasida ta'lif sifatini boshqarishda korreksion tarbiya va tarbiyachilarning o'rni
------------	-----	---

ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

L. Nabiyulina	140	Подходы, принципы и направления развития интеллектуальной мобильности в системе высшего образования
---------------	-----	---

Sherali JO'RAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrasи o'qituvchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING REFLEKSIV POZITSIYASI FALSAFIY VA PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotation

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasi falsafiy va pedagogik-psixologik muammo sifatida yoritilgan. Shuningdek, refleksiya, umume'tirof qilingan pedagogik-psixologik hodisa sifatida, bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik pozitsiyasining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Refleksiya, refleksiv pozitsiya, refleksiv jarayonlar, bo'lajak o'qituvchilar, falsafa, pedagogika, psixologiya.

В данной статье рассматривается рефлексивная позитивность будущих учителей как философская и педагогико-психологическая проблема. Также рефлексия, как общепризнанный педагогико-психологический феномен, была проанализирована как составляющая профессионально-педагогической позиции будущего учителя.

Ключевые слова. Рефлексия, рефлексивная позитивность, рефлексивные процессы, будущие учителя, философия, педагогика, психология.

This article examines the reflexive positivity of future teachers as a philosophical and pedagogical-psychological problem. Also, reflection, as a universally recognized pedagogic-psychological phenomenon, was analyzed as a component of the professional and pedagogical position of the future teacher.

Key words. Reflection, reflexive positivity, reflexive processes, future teachers, philosophy, pedagogy, psychology.

Bugungi ta'lim shaxsning barkamol rivojlanishi va umuminsoniy ideallarga yo'naltirilgan bo'lib, ta'limga insonparvar yondashuv dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bularning barchasi bo'lajak o'qituvchini kasbiy tayyorlashga o'zgarishlar kiritish obyektiv zaruriyatini shart qilib qo'yemoqda. Mazkur sharoitda o'qituchi faoliyatining boshqacha mazmunini izlash, uning ishining yangi usullari va texnologiyalarini joriy qilish lozim.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda OTMdа bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi quyidagi komponentlardan tashkil topgan: pedagogika sohasida bilim va ko'nikmalar, pedagogik-psixologik texnologiyalarni bilish va kerakli vaziyatda qo'llash ko'nikmasi; ta'lim jarayonida pedagogik o'zaro ta'sirga kirishish; ko'p madaniyatlararo dialogli muloqot qilish qobiliyatida namoyon bo'luvchi kommunikativ madaniyat; fan bilimlari sohasida pedagogik-psixologik va metodik tayyorlash.

Bugungi kunda OTMdа kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik faoliyat subyekti sifatidagi bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning ham amaliy, ham nazariy-metodologik jihatlarini ochib bera oladigan ilmiy tadqiqotlar yetarli emas.

Refleksiya – shaxs o'zini o'zi rivojlantirishning eng muhim omili bo'lib, shaxsiy kamchilik va yaxshi fazilatlarni emotsiunal jihatdan qayta ko'rib chiqishga yordam beradi. "Refleksiya" tushunchasining mohiyati va mazmuni mashhur faylasuflar (S.V. Geigel, R. Dekart, I. Kant, G. Leybnis, Dj. Lokk, Dj. Dyui, L. Feyerbax, P. Teyyar de Shar-

den, V.A. Lektorskiy), pedagoglar (A.K. Markova, S.L. Rubinshteyn, Yu.N. Kulyutkin, G.S. Suxobskaya) va psixologlar (A. Adler, A.A. Bodalev, L.S. Vygotskiy, L.M. Mitina) asarlarida tahlil qilingan.

“Refleksiya” tushunchasi murakkab, ko‘p jihatli bo‘lib, falsafa, psixologiya, pedagogika kabi bir qator fanlarning tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Refleksiya (lotincha reflexio – orqaga nazar tashlash) “inson tafakkurining tamoyili” bo‘lib, insonni o‘z shakl va dastlabki shartlarini qayta anglash va tushunishga yo‘naltiradi; bilimni predmet jihatdan ko‘rib chiqish, uning mazmuni va bilish usullarining tanqidiy tahliliga qaratilgan; inson ma’naviy dunyosining ichki tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan o‘zini o‘zi bilish faoliyatidir. Bilish shakli sifatida refleksiya nafaqat tanqidiy, balki evristik tamoyil hamdir: u yangi bilim manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogika fanida refleksiyaning quyidagi turlari ajratiladi:

- elementar;
- ilmiy;
- falsafiy.

Refleksiya ijtimoiy, estetik, ilmiy, axloqiy yo‘nalishlarga ega. Mazkur yondashuv mahsuldarlikni oshirgan, ma’naviy salohiyatni boyitgan holda ilmiy izlanishlarga ko‘maklashadi. Olim va mutafakkirlarning talqinida refleksiya – bu inson ongida fikr yuritish, o‘zini o‘zi anglash mazmunini tushunishda ifodalangan jarayon hamda tafakkur va nazariy faoliyatning shaklidir. Bundan kelib chiqqan holda, OTMdA pedagogik ta’lim muktab faoliyati va umuman madaniyatda o‘z o‘rnini aniq tasavvur qiladigan bo‘lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash masalasini hal qilishi zarur. V.A. Slastenin fikriga ko‘ra, – “Mazkur iboraning mohiyati, insonparvarlikka yo‘nalgan oliv pedagogik ta’lim paradigmasini amalgalashishdan iborat bo‘lib, uning strategiyasi olamni gumanistik nuqtayi nazardan yaxlit idrok qilish, tushunishga ega va o‘zligini tushungan, ma’naviy rivojlangan o‘qituvchi shaxsini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak”. Zamonaviy o‘qituvchining o‘zligini anglash masalalari bo‘lajak o‘qituvchida pedagogik tafakkurni rivojlantirish, pedagogik faoliyatning refleksiv jarayonlari kabi masalalarga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘rganilmoqda. “O‘qituvchining kasbiy o‘zligini anglash elementlari o‘z-o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lish, o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, “Men”-konsepsiysi, “Men” obraqi, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi har tomonlama rivojlantirish kabi pedagogik refleksiya atamalarida ifodalanganadi. Pedagog faoliyatida kasbiy harakatlar va ular natijalari anglanadi, bu jarayonda “Men” obraqi shakllanadi. Kommunikativ sohada o‘z “Menining”, ya’ni “refleksiv Men” va “reversiv Men” larning obyektivatsiyasi namoyon bo‘ladi. Psixofiziologik muhitda jismoniy “Men” lokusi ajralib chiqadi, u “Men” – tirik organizmga shakllanadi. Bunda kasbiy o‘zligini anglashning protsessual komponenti o‘zining kasb doirasida shakllanishini anglash sifatida tushuniladi”.

Psiyologik yondashuv nuqtayi nazardan refleksiya jarayoni – har bir insonga tabiat tomonidan in’om qilingan faoliyatning ichki psixologik tarkibiy qismi bo‘lib, u refleks kabi fiziologik mehanizmda ifodalandi, va inson psixikasi (ruhiyati) individda refleksiv pozitsiyani shakllantirish uchun murakkab yo‘lni bosib o‘tishi kerak.

Refleksiya – bu “subyektning hamkorlikdagi faoliyat jarayonida uning protsessual va natijaviy o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish maqsadida undan unga nisbatan tashqi pozitsiyaga chiqishdir. Refleksiyaning kooperativ jihatli haqidagi psixologik bilimlar jamoaviy faoliyatni, subyektlar hamkorlikdagi professional harakatlarini muvofiqlas-

htirish va kooperatsiya qilishni hisobga olgan holda, yanada samaraliroq loyihalash-tirish imkonini beradi. Refleksiyaning kommunikativ jihatni bir insonning boshqa inson ichki dunyosini aks ettirish jarayoni sifatida tushuniladi. Bunda refleksiya harakat qiluv-chi individning muloqot bo'yicha sherkilari uni qanday idrok qilayotganliklarini anglash sifatida ham namoyon bo'ladi".

Bular refleksiya samarali kommunikatsiya va shaxslararo munosabatlarning eng muhim omili ekanligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda refleksiv pozitsiyani tasniflash va strukturizatsiya qilishga yagona yondashuv mavjud emas. S.Yu. Stepanov refleksiyaning quyidagi turlarini ajratib ko'r-satadi, ular:

- intellektual;
- shaxsiy;
- kooperativ;
- kommunikativ.

Refleksiyaning mazkur tuzilishi va tasnifi bo'lajak pedagoglarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishda katta o'rin egallaydi. Chunki bo'lajak pedagogning o'z faoliyatiga nazari sifatidagi refleksiv pozitsiyasi turli vaziyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Pedagog esa hamkasblari, ta'limga oluvchilar va o'zining faoliyati ustida o'ylashi, ularni baholashi va tahlil qilishi shart. Refleksiv pozitsiya ma'ruza, chiqish, anjuman, seminar shaklida, shuningdek, o'z faoliyatini tahlil qilish va hamkasblar bilan norasmiy muloqotda amalga oshirilishi mumkin.

Refleksiv jarayonlar pedagogning butun kasbiy faoliyati bilan parallel ravishda kechadi va quyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin:

- a) ta'limga oluvchilar bilan muloqotda, bolalarning his-tuyg'ulari, fikrlari va xatti-harakatlarini tushunish va tartibga solishga intilishda;
- b) bolalar harakatlarini loyihalashtirish jarayonida, ta'limga maqsadlarini, ta'limga oluvchilarning xarakterologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, mustaqil ishlab chiqishga urinishlarida;
- v) pedagog tomonidan o'zining pedagogik xatti-harakatlari va o'z shaxsiga nisbatan o'zini o'zi baholashi va o'zini o'zi tahlil qilishi jarayonida.

Bo'lajak pedagog shaxs tahlilini amalga oshirganda va diqqat-e'tiborini o'ziga qaratgan holdagini, ya'ni refleksiya qobiliyatini namoyon qilgandagina kasbiy rivojlanishi mumkin bo'ladi. Refleksiya – bu kasbiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir, shuning uchun, refleksiv pozitsiyasi OTMdayoq, bo'lajak mutaxassisning ta'limga olish jarayonida rivojlanishi lozim.

Refleksiya psixologik jarayon sifatida – bu shaxsning o'zining kasbiy tajribasini tahlil qilish qobiliyati. Refleksiv pozitsiyaning rivojlanishi shaxs natijalarga erishishda qiyinchiliklar bilan to'qnashgan vaziyatlarda boshlanadi. Bu holda hal qilishning ikki yo'li yuzaga keladi: a) shaxsiy va o'zgalar tajribasini tahlil qilish va tahlil natijalarini amalga oshirish; b) tajriba yo'qligida harakatlarni rejallashtirish va shaxsning yangi, yuqoriq darajaga chiqishi. Bu "refleksiv chiqish"dir, yangi pozitsiya esa – shaxsning refleksiv pozitsiyasi deb ataladi. Refleksiya insonga hayotdan chiqish, ya'ni "hayotga tepadan, uning ustidan turib qarash pozitsiyasini egallah va unga nisbatan mos munosabati ishlab chiqish" imkonini beradi.

Refleksiv pozitsiyani rivojlantirishga qaratilgan tayyorlash jarayonida refleksiya quyidagi funksiyalarni bajaradi: Loyihalashtiruvchi (pedagogik jarayon ishtirokchilari faoliyatini loyihalashtirish va modellashtirish); tashkillashtiruvchi (hamkorlikdagi faoli-

yatda o'zaro ta'sirning eng samarali usullarini tashkil qilish); kommunikativ (pedagogik jarayon ishtirokchilarining mahsuldor muloqotining sharti sifatida); ma'noijodkorlik (faoliyat va o'zaro ta'sirning anglanganligini shakllantirish); motivatsiyali (pedagogik jarayon ishtirokchilari birligida faoliyatining natijaga yo'nalganligini aniqlash); korreksiyalovchi (tuzatuvchi) (o'zaro ta'sir va faoliyatda o'zgarishlarga undash).

Refleksivlik – o'z-o'zini va o'zgalarni anglash qobiliyati. Bu tafakkurning shunday turiki, unda shaxs o'zini tushunish va o'z xatti-harakatlarini tushunish imkoniyatiga ega. Refleksivlik – bu insonning asosiy psixologik xususiyati, shuning uchun pedagogni kasbiy faoliyatga tayyorlashda shaxsning bu xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagoglarda refleksiv ko'nikmalarini kasbiy kompetensiyasi sifatida rivojlantirish muammosi, ayniqsa, dolzarb va oliy kasbiy psixologik-pedagogik ta'limga uchun yangi metodologik masalalarni hal qilishni, shuningdek, mutaxassislar kompetentligi darajasiga yangi talablarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Pedagogning refleksiv pozitsiyasi – bu o'zining ilgarigi shaxsiy va kasbiy tajribasini o'rnatish va qayta anglash bo'lib, pedagog shaxsining innovatsion va ijodiy salohiyatini faollashtirish, kasbiy faoliyatda refleksiyani qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Shunday qilib, zamonaviy tadqiqotlar tahlili asosida refleksiv pozitsiya insonning o'zini o'zi bilish, o'zi va atrofdagilarni aks ettirish, o'z harakatlarini qayta anglash hamda boshqa odamlar tomonidan ushbu harakatlarni baholashini refleksiya qilish sifatida tushuniladi. Pedagogik faoliyat komponenti sifatida u bo'lajak mutaxassisga o'z faoliyatini tushunish, o'z shaxsining ichki dunyosining o'ziga xos xususiyatlarini ochish imkonini beradi. Ya'ni refleksiya, umume'tirof qilingan pedagogik-psixologik hodisa sifatida, bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik pozitsiyasining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кулюткин Ю.Н. Психология думающего учителя. – М., 1984. – С. 311.
2. Семенов И.Н., Степанов С.Ю. Типы взаимодействия наук и методологические ориентации в психологии творчества рефлексии. – М., 1989.
3. Словарь практического психолога (2000 терминов)- сост.: Головин С.Ю. Минск, – М.: "Харвест" "ACT", 2003. – С. 660.